

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA MUSIQA SAVODXONLIGI
(MUSIQA NAZARIYASI) FANINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK
ASOSLARI**

Rasulova Homidabonu Nu'monxon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

Murodova Durdona Rayimjon qizi

Ilmiy rahbar PhD (Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori)

Annotatsiyasi: Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa savodxonligi (musiqa nazariyasi) fanining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Musiqa nazariyasining mazmuni, uning pedagogik ahamiyati hamda dars jarayonida qo'llaniladigan samarali metodlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu fan orqali o'quvchilarda musiqiy tafakkur, eshituv madaniyati va ijodiy salohiyatni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy tafakkur, eshituv madaniyati, ijodiy salohiyat, nazariy-metodologik asoslar.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретико-методологические основы развития предмета музыкальной грамотности (теории музыки) в детских школах музыки и искусства. Проанализированы содержание музыкальной теории, её педагогическое значение и эффективные методы преподавания. Также рассматриваются возможности развития музыкального мышления, слуховой культуры и творческого потенциала учащихся через данный предмет.

Ключевые слова: Музыкальное мышление, культура слушания, творческий потенциал, теоретико-методологические основы.

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations of developing the subject of music literacy (music theory) in children's music and art schools. It analyzes the content of music theory, its pedagogical significance, and effective teaching methods. The paper also discusses opportunities for developing students' musical thinking, auditory culture, and creative potential through this subject.

Key words: Musical thinking, listening culture, creative potential, theoretical and methodological foundations.

Ma'lumki, bolalar musiqa va san'at maktablari – bu yosh avlodning estetik didini shakllantirish, musiqiy tafakkurini rivojlantirish va badiiy dunyoqarashini kengaytirishda muhim o'rin tutadigan ta'lim muassasasidir. Bu maktablarda musiqa ijrosi bilan bir qatorda, nazariy bilimlarni o'rgatish – ya'ni musiqa savodxonligi to'g'ri va samarali o'qitish eng muhim vazifalardan biridir. Musiqa savodxonligi, bu nafaqatnotalarni o'rganish yoki musiqiy yozuvni o'qish bilan cheklanmaydi balki u bolalarga musiqa ichki tuzilishi, janrlari, ritmik va melodic qurilishi, shuningdek

musiqa tarixi va nazariyasi haqidagi chuqur bilimlarni beradi. Shu orqali o'quvchilarda musiqiy eshituv, tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa savodxonligi, ya'ni musiqa nazariyasi fanini rivojlantirish masalasi nafaqat ta'lim tizimida, balki jamiyatimizda estetik ma'naviy tarbiyaning sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi dolzarb muammo sifatida qarash lozim. Zero, musiqa savodxonligi – bu har qanday musiqiy ta'limning asosi bo'lib, o'quvchilarning musiqa haqidagi tasavvurini shakllantiradi, ularni musiqa asarlarini anglash, tahlil qilish va ijodiy ifoda etishga yo'naltiradi. Biroq amaliyotda ushbu fan ikkinchi darajali, nazariy va "quruq" dars sifatida qaralib, unga yetarli e'tibor bermaslik holatlari uchramoqda. Bu esa: o'quvchilar ijro faoliyatida tushunchlarning yuzaki bo'lishi, ijro vaqtida uni anglash va his qilish yetishmasligi, dars jarayonlarida faollikdan yiroq bo'lish kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Buning sababi esa faqat grammatik qoidalar va nazariy tushunchalarga tayanish, interaktiv yondashuv kamligi, o'qituvchilarning uslubiy va texnik bazasi yetarli darajada boy emasligi, yangicha metodikalar va zamonaviy texnologiyalarning kam qo'llanilishi deb o'ylayman.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa savodxonligi darslari yosh iste'dodlarni musiqiy madaniyatga jalb etish va ularning nazariy bilimlarini shakllantirishning asosiy qismini tashkil etadi. Musiqa savodxonligi nafaqat musiqani tushunish va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki bolalarning umumiy intellektual va ijodiy salohiyatini ham oshiradi. Ushbu darslar musiqiy eshituvni rivojlantirish, nota savodini o'rgatish, ritm va ohangni idrok qilish, shuningdek, musiqiy terminologiya va tarixiy bilimlarni o'z ichiga oladi. Nazariy jihatdan musiqa savodxonligi darslari bir qancha tarkibiy qismlarga bo'linadi. Ulardan asosiylari quyidagilar: nota tizimi va yozuvi, tonalitet va ladlar tushunchasi, musiqiy asarlarning tuzilishi, ritm va metro-ritmika, shuningdek, mualliflik texnikalari va ijro uslublari. Ushbu tarkibiy qismlar bolalarga musiqa bilan chuqur tanishishga yordam berib, ularning ijodiy tafakkurini kengaytiradi. Bundan tashqari, musiqa savodxonligi darslari didaktik va pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Bu darslarda o'qituvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarning musiqiy bilimlarini mustahkamlaydi. Natijada, bu jarayon yosh avlodning milliy va jahon musiqiy merosiga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning ijodiy salohiyatini yuksaltiradi. Shu sababli, musiqa savodxonligi darslari bolalar musiqa va san'at maktablari ta'lim tizimining ajralmas qismidir.

O'quvchilarning ijro faoliyatida tushunchalarining yuzaki bo'lishi, musiqa asarlarini ijro etishda anglash va his qilish yetishmasligi, dars jarayonlarining faollikdan yiroq bo'lishi, interaktiv yondashuv kamligi, o'qituvchilarning uslubiy va texnik bazasi yetarli darajada boy emasligi musiqa savodxonligi (musiqa nazariyasi) faniga yetarli e'tibor bermaslikka olib kelmoqda. Shu sababdan xam musiqa savodxonligi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, amaliy va nazariy mashg'ulotlarni integratsiyalash zarur.

Natijada musiqa savodxonligi fanini rivojlantirish, musiqiy ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, estetik anglash va milliy madaniyatga hurmat tuyg'usini shakllantirish mumkin.

Bu esa, o'z navbatida, har tomonlama yetuk va musiqiy saviyasi baland avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahon musiqa tarixi. 2017. 23-bet. Ravshanoy tursunova, Gushanoy Tursunova.
2. Xorijiy musiqa adabiyoti. I.qism A.X.Trigulova. Ilm-ziyo 2009.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya. G.Ibragimova, L. Urmanova, M.Xalilovna, F. Nuriddinovich.
5. Kosmos it maktabi. Dzen.ru.
6. EIN GEDANKE ZU "Metod va metodika." DaF/DAZ-Lehrer in Uzbekistan.Erstelle eine Website dies emit WordPress.com.25.12.2019
7. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. D. Soipova. T.2009-yil. 71-bet